



YAPON VA O'ZBEK TILLARIDA SANOQ QO'SHIMCHALARI: LINGVISTIK VA QIYOSIY TAHLIL

Ilhomova Nozima

O'zDJTU Sharq filologiya fakulteti

FYAP 2410-guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yapon va o'zbek tillaridagi sanoq qo'shimchalari lingvistik jihatdan qiyosiy tahlil qilinadi. Yapon tilida sanoq qo'shimchalari otlarning turiga qarab o'zgarishi va maxsus kategoriyalar bilan bog'lanishi o'rganiladi. O'zbek tilida esa sanoq qo'shimchalari umumiyroq ishlatilishi va qanday kontekstlarda o'zgarishi ko'rib chiqiladi. Maqolada bu qo'shimchalarning grammatik va semantik jihatlari o'rganilib, ularning o'xshashlik va farqlari aniqlanadi. Maqolada yapon va o'zbek tillarida sanoq qo'shimchalari tizimi va ularning lingvistik xususiyatlari chuqurroq yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *sanoq qo'shimchalari, yapon tili, o'zbek tili, qiyosiy tahlil, semantika, pragmatika, lingvistika.*

Abstract: *This article presents a comparative linguistic analysis of numeral suffixes in Japanese and Uzbek. In Japanese, numeral suffixes change depending on the type of noun and are associated with specific categories. In Uzbek, however, numeral suffixes are used more generally, and their variations in different contexts are examined. The study analyzes the grammatical and semantic aspects of these suffixes, identifying their similarities and differences. The article clarifies how numeral suffixes function in Japanese and Uzbek and provides a deeper insight into their linguistic characteristics.*

Key words: *Numeral suffixes, Japanese language, Uzbek language, comparative analysis, semantics, pragmatics, linguistics.*

Аннотация: *В данной статье проводится сравнительный лингвистический анализ счётных суффиксов в японском и узбекском языках. В японском языке счётные суффиксы изменяются в зависимости от типа*

существительного и связаны с определёнными категориями. В узбекском языке, напротив, они используются более универсально, и их изменение в различных контекстах рассматривается отдельно. В статье анализируются грамматические и семантические особенности этих суффиксов, выявляются их сходства и различия. Исследования определяются, как функционируют счётные суффиксы в японском и узбекском языках, а также раскрываются их лингвистические особенности.

Ключевые слова: счётные суффиксы, японский язык, узбекский язык, сравнительный анализ, семантика, прагматика, лингвистика.

Tilshunoslikda sanoq qo‘shimchalari otlarning sonini ifodalash va tartibga solishda muhim rol o‘ynaydi. Har bir tilning sanoq qo‘shimchalari tizimi o‘ziga xos bo‘lib, ular grammatika, semantika va pragmatika jihatidan turlicha shakllangan. Yapon va o‘zbek tillarida sanoq qo‘shimchalari har xil tizim asosida ishlaydi: yapon tilida ular otlarning turiga qarab o‘zgarib, maxsus kategoriyalarga bo‘linadi, o‘zbek tilida esa ular nisbatan umumiyroq qo‘llanilib, kontekstga qarab shakllanadi.

Yapon tilida sanoq qo‘shimchalari ob’ektlarning shakli, materiali, harakatchanligi yoki funksiyasiga qarab turli toifalarga bo‘linadi. Bunday klassifikatsiya so‘zga grammatik moslashuv talab qiladi va ularni noto‘g‘ri ishlatish grammatik xatolik hisoblanadi. Yapon tilida asosiy sanoq qo‘shimchalari quyidagicha tasniflanadi:

本 (ほん, -hon/-pon/-bon) – uzun va silindrsimon narsalar (kitob, qalam, tayoq).

枚 (まい, -mai) – yupqa va yassi narsalar (qog‘oz, chiptalar, kiyim-kechak).

個 (こ, -ko) – mayda va umumiy narsalar (tuxum, tosh, olma).

人 (にん, -nin, ひとり -hitori, ふたり -futari) – odamlar soni uchun.

匹 (ひき, -hiki/-piki/-biki) – mayda hayvonlar va ba’zan hasharotlar.

頭 (とう, -tou) – yirik hayvonlar (sigir, ot, fil).

冊 (さつ, -satsu) – kitoblar, jurnallar.



台 (だい, -dai) – texnika vositalari (mashina, televizor, kompyuter) [1-2].

Yapon tilida son va sanoq qo‘shimchasining talaffuzi ham o‘zgarishi mumkin. Masalan, 1 hon (ip), 3 bon (sanbon), 6 pon (roppon) kabi. Bu holat yapon tilini o‘rganishda qiyinchilik tug‘dirishi mumkin.

O‘zbek tilida sanoq qo‘shimchalari yapon tilidagidek qat’iy klassifikatsiyaga ega emas. Sanoq birliklari narsa yoki jonli mavjudotning shakli, materiali yoki hajmiga qarab unchalik o‘zgarmaydi. Asosiy sanoq qo‘shimchalari quyidagilar:

-ta – universal sanoq qo‘shimchasi, deyarli barcha otlarga qo‘shilishi mumkin:

Uchta kitob, beshta qalam, oltita non.

-dona – mustaqil yoki alohida ajraladigan ob’ektlar uchun ishlatiladi:

Ikki dona tanga, uch dona tuxum, to‘rt dona olma.

-par – juft holatda keladigan narsalar uchun:

Bir par poyabzal, uch par qo‘lqop.

-nafar – odamlar sonini sanash uchun:

Uch nafar talabalar, besh nafar mehmonlar.

-boshi – chorva mollari va yirik hayvonlar uchun:

Ikki bosh qo‘y, besh bosh sigir [3].

Yapon va o‘zbek tillaridagi sanoq qo‘shimchalari bir-biridan farq qilgani bilan, ularda ayrim o‘xshash jihatlar ham mavjud. Ushbu bo‘limda ikkala tilning sanoq tizimidagi umumiyliklarni ko‘rib chiqamiz.

1. Har ikkala tilda sanoq qo‘shimchalari mavjudligi

Yapon va o‘zbek tillarida sanoq qo‘shimchalari mustaqil grammatik birlik sifatida mavjud bo‘lib, ular otlar bilan birgalikda ishlatiladi. Masalan:

Yaponcha: 一本 (ippon) – bitta tayoq

O‘zbekcha: bitta tayoq

Ko‘rinib turibdiki, har ikkala tilda ham bitta narsani sanash uchun maxsus birliklar mavjud.

2. Sanoq qo‘shimchalari son bilan bog‘lanadi



Yapon va o'zbek tillarida sanoq qo'shimchalari sonlar bilan ishlatiladi va ot oldidan yoki keyin kelishi mumkin.

Yaponcha: 三枚の紙 (sanmai no kami) – uchta qog'oz

O'zbekcha: uchta qog'oz

Har ikkala til ham sonni sanaladigan ot bilan bog'lash uchun sanoq qo'shimchasidan foydalanadi.

3. Xususiyatiga qarab maxsus sanoq qo'shimchalari mavjudligi

Yapon va o'zbek tillarida sanoq qo'shimchalari sanalayotgan narsa turiga qarab o'zgaradi.

Yaponcha: 細長い物 (細い) – uzun va ingichka narsalar uchun: 一本 (ippon) – bitta ruchka, 動物 – hayvonlar uchun: 一匹 (ippiki) – bitta mushuk

O'zbekcha: Umumiy sanoq – barcha otlar uchun: bitta kitob

Bo'lak sanash – ajraluvchi narsalar uchun: bir bo'lak non

Demak, har ikkala tilda ham sanoq qo'shimchalari sanalayotgan obyektning shakli yoki xususiyatiga qarab o'zgaradi.

5. Lingvistik ahamiyatga ega bo'lishi

Sanoq qo'shimchalari har ikkala tilda ham gap tuzilishida muhim rol o'ynaydi. O'zbek tilida bu so'z birikmasi sifatida ishlatilsa, yapon tilida esa mustaqil grammatik kategoriya sifatida namoyon bo'ladi.

Yaponcha: 三冊の本を買いました。 (San-satsu no hon o kaimashita) – Uchta kitob sotib oldim.

O'zbekcha: Uchta kitob sotib oldim.

Bu jihatdan ikkala til ham sanoq qo'shimchalarini son+ot tizimi asosida shakllantiradi.

Yapon va o'zbek tillaridagi sanoq birliklari qiyosi

Tushuncha	Yapon tilida	O'zbek tilida	Izoh
Umumiy sanoq	一つ (-tsu): 一 一つ (hitotsu), 二つ (futatsu)	-ta: bitta, ikkita	Yapon tilida faqat 1-10 oralig'ida ishlatiladi, o'zbek tilida esa cheklanmagan.



Dona birliklar	個 (-ko): 一 個 (ikko), 二 個 (niko)	-dona: bir dona , ikki dona	Har ikkala tilda ham individual obyektlar uchun ishlatiladi.
Yassi narsalar	枚 (-mai): 一 枚 (ichimai), 二枚 (nimai)	-ta, -varaq: bir varaq, ikki varaq	Qog‘oz, kartalar, choyshablar uchun ishlatiladi.
Hayvonlar	匹 (-hiki): 一 匹 (ippiki), 二匹 (nihiki), 頭 (- tou): 一頭 (ittou), 二頭 (nitou)	-ta, -bosh: bitta mushuk, ikki bosh ot	O‘zbek tilida kichik hayvonlar uchun “ta”, katta hayvonlar uchun “bosh” ishlatiladi. Yapon tilida esa kichik hayvonlarga “hiki”, yirik hayvonlarga “tou” ishlatiladi.
Odamlar	人 (-nin): 三 人 (sannin), 四人 (yonin)	nafar: uch nafar, to‘rt nafar	Yapon tilida 1 va 2 uchun hitori, futari maxsus shakllari bor.
Juftlik birliklari	足 (-soku): 一足 (issoku), 二 足 (nisoku)	juft: bir juft, ikki juft	Poyabzal, paypoq uchun ishlatiladi.
Mashina va texnika	台 (-dai): 一 台 (ichidai), 二台 (nidai)	-ta, dona: bir dona mashina, ikkita televivor	Avtomobillar, texnikalar uchun ishlatiladi.
Ichimliklar	杯 (-hai): 一 杯 (ippai), 二 杯 (nihai)	stakan, kosa: bir stakan suv,	Ichimliklar va suyuqliklar uchun ishlatiladi.



		ikki kosa sho'rva	
Parchalar, bo'laklar	切れ (-kire): 一切れ (hitokire), 二 切れ (futakire)	bo'lak: bir bo'lak non, ikki bo'lak tort	Narsalarni bo'laklarga ajratib sanashda ishlatiladi.
Takroriy hodisalar	回 (-kai): 一 回 (ikkai), 二 回 (nikai)	marta: bir marta, ikki marta	Ikkala tilda ham takoriy hodisalar uchun maxsus birliklar bor.
Qadam va masofa birliklari	歩 (-ho): 一 歩 (ippo), 二 歩 (niho)	qadam: bir qadam, ikki qadam	Yapon tilida yurish uchun maxsus "-ho" qo'shimchasi bor [2-4].

Yapon tilidagi sanoq qo'shimchalarini chuqurroq o'rganish va tushunish uchun Natsuko Tsujimuraning "An Introduction to Japanese Linguistics" (2013) [5] asari muhim manba hisoblanadi. Ushbu kitobda sanoq qo'shimchalarining grammatik va semantik xususiyatlari, otlarning turiga qarab o'zgarishi hamda ularning yapon tilidagi o'rni batafsil tahlil qilingan. Yapon va o'zbek tillarining sanoq tizimini qiyoslashda ushbu manbadan foydalanish tavsiya etiladi.

Yapon va o'zbek tillari sanoq qo'shimchalari tizimi jihatidan sezilarli farqlarga ega. Yapon tilida sanoq qo'shimchalari sanalayotgan obyektning turiga bog'liq holda o'zgaradi, bu esa til tizimini yanada murakkablashtiradi. O'zbek tilida esa bunday qat'iy ajratish mavjud emas va sanoq asosan birlik yoki ko'plik shakllari bilan ifodalanadi. Birinchi asosiy farq — sanoq qo'shimchalarining kategoriyalarga bo'linishi. Yapon tilida predmetlarning shakli, hajmi yoki turi bo'yicha maxsus sanoq qo'shimchalari mavjud. Ikkinchidan, yapon tilida sanoq qo'shimchalari son bilan birga kelib, ot bilan kelishik qo'shimchalari orqali bog'lanadi. Masalan: 3本のペン (san-bon no pen) – “uchta ruchka”, 5匹の犬 (go-hiki no inu) – “beshta it”



O'zbek tilida esa sanoq birliklari son va ot o'rtasida joylashadi yoki oldin keladi: "uchta ruchka", "beshta it". Yapon tilida ayrim sanoq qo'shimchalari nutqda rasmiy yoki norasmiy bo'lishi mumkin:

san-mai (uch dona yassi narsa) → og'zaki nutqda san-chaku deb ishlatilishi mumkin.

O'zbek tilida esa rasmiy va norasmiy nutqda sanoq birliklari bir xil qo'llanadi.

Sanoq qo'shimchalari har ikkala tilda ham sanaladigan obyektning xususiyatlarini aks ettiradi va ma'no jihatidan obyekt haqida qo'shimcha axborot beradi. Shu jihatdan yapon va o'zbek tillaridagi sanoq tizimi semantik o'xshashlik va farqlarga ega.

Sanoq qo'shimchalari obyektlarning hajmi va shakliga bog'liq. Har ikkala tilda ham sanoq qo'shimchalari sanaladigan narsaning kattaligi, shakli va tabiati bilan bog'liq. Bu jihatlarni yuqoridagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.

Ikkala tilda ham sanoq qo'shimchalari faqat aniq jismlarni emas, balki vaqt, masofa, miqdor kabi abstrakt birliklarni ham anglatishi mumkin.

Yapon tilida: -kai (回) "martalab" ma'nosini bildiradi (ikki marta – ni-kai), -nen (年) "yil" uchun ishlatiladi.

O'zbek tilida: "marta", "yil", "soat", "kun" kabi sanoq birliklari mavjud ("uch marta", "besh yil" va h.k.).

Yapon tilida 100 dan ortiq maxsus sanoq qo'shimchalari mavjud bo'lib, har biri turli ob'ektlar uchun ishlatiladi. O'zbek tilida esa sanoq birliklari unchalik ko'p emas va asosan "ta", "nafar", "bosh", "juft", "don" kabi umumiy qo'shimchalardan iborat. Yapon tilida ayrim sanoq qo'shimchalari sonlarga qarab fonetik o'zgarishga uchraydi. Masalan, 一本 (ippon – 1 ta uzun narsa), 三本 (san-bon – 3 ta uzun narsa), 六本 (roppon – 6 ta uzun narsa) kabi shakllar mavjud. O'zbek tilida bunday fonetik o'zgarishlar yo'q, son va sanoq birliklari doimiy shaklda qoladi: "bir dona", "uchta", "olti juft".

Endi esa, sanoq qo'shimchalarining real nutq jarayonida qanday ishlatilishini – ularning pragmatik jihatlarini ko'rib chiqamiz. Yapon tilida: bolalar yoki norasmiy suhbatda "hitotsu, futatsu, mittsu" kabi sanoq tizimi ko'proq



ishlatiladi. O'zbek tilida: bolalar tilida "bitta, ikkita, uchta" shakllari rasmiy shakllarga nisbatan kengroq qo'llanadi. Yapon tilida: noto'g'ri sanoq qo'shimchasini ishlatish ba'zan hazil yoki qo'pol qabul qilinishi mumkin. Masalan, agar odamlarni "ko" sanoq qo'shimchasi bilan sanasangiz, bu odamni ashyodek ko'rsatish deb tushunilishi mumkin [5-6]. O'zbek tilida esa pragmatik jihatdan noto'g'ri sanoq qo'shimchalari unchalik kuchli ta'sir qilmaydi, lekin "dona" so'zi odamlar uchun ishlatilsa, bu g'alati eshitilishi mumkin.

Yapon tilida sanoq qo'shimchalari nafaqat grammatik jihatdan, balki nutqiy kontekstga qarab ham mos tanlanishi kerak. Martin (2004) ta'kidlaydiki, noto'g'ri sanoq qo'shimchasidan foydalanish ba'zan tushunmovchilikka sabab bo'lishi yoki nutqni rasmiy-norasmiy darajaga mos kelmaydigan shaklga keltirishi mumkin. Masalan, insonlarni sanashda "-人 (-nin)" sanoq qo'shimchasi ishlatiladi (masalan, san-nin – uch kishi), lekin agar noto'g'ri ravishda "-個 (-ko)" kabi jonsiz buyumlar uchun ishlatiladigan sanoq qo'shimchasidan foydalanilsa, bu hurmatsizlik yoki notabiiy nutq sifatida qabul qilinishi mumkin. Shuningdek, "-本 (-hon)" sanoq qo'shimchasi odatda uzun va silindrsimon jismlar uchun ishlatiladi, biroq ichimliklar sanalganda bu qo'shimchaning noto'g'ri shaklda ishlatilishi nutqiy noqulaylik tug'dirishi mumkin. Bundan tashqari, Martin (2004) pragmatik jihatdan rasmiy va norasmiy uslublar orasidagi farqlarga ham e'tibor qaratadi. Masalan, og'zaki nutqda bolalar yoki do'stlar o'rtasida "一つ (hitotsu), 二つ (futatsu)" kabi umumiy sanoq shakllari ishlatilsa ham, rasmiy vaziyatlarda aniq sanoq qo'shimchalaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunday qilib, yapon tilida sanoq qo'shimchalarining noto'g'ri qo'llanilishi pragmatik jihatdan muhim rol o'ynaydi. Bu grammatik xatolikdan tashqari, nutq madaniyatiga ham ta'sir qiladi va ma'lum holatlarda nojo'ya yoki hazilomuz qabul qilinishi mumkin [7].

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqolada yapon va o'zbek tillaridagi sanoq qo'shimchalari qiyosiy tahlil qilindi. Yapon tilida ular predmetlarning shakli va turiga bog'liq holda o'zgarib, aniq tasnifga ega bo'lsa, o'zbek tilida ular umumiyroq va moslashuvchanroq qo'llanadi. Semantik jihatdan yapon tilida sanoq qo'shimchalari aniq kategoriyalarga ajratilsa, o'zbek tilida bunday qat'iy farqlar yo'q. Pragmatik



jihatdan esa yapon tilida rasmiy va norasmiy nutqda ularning qo‘llanilishi farqlanadi, o‘zbek tilida esa bu kamroq kuzatiladi. Tadqiqot natijalari sanoq qo‘shimchalarining til tizimidagi o‘rnini va ularning amaliy ahamiyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Xalmirzayeva, N. Yapon tili. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2019. – 117 b.
2. Minna no Nihongo I. – Tokyo: 3A Corporation, 1998. – (11-dars).
3. G‘ulomov, A. O‘zbek tilida ko‘plik kategoriyasi. – Toshkent: Fan, 1994. – 89 b.
4. Xalmirzayeva, M. O‘zbek tilida sanash va sanoq birliklari tizimi. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2018. – 102 b.
5. Tsujimura, N. An Introduction to Japanese Linguistics. – 3rd ed. – Oxford: Wiley-Blackwell, 2013. – 400 p.
6. Martin, S.E. A Reference Grammar of Japanese. – Honolulu: University of Hawaii Press, 2004. – 120 b.
7. Iwasaki, S., & Horie, K. Japanese Numeral Classifiers and Pragmatics. – Tokyo: University Press, 2015. – 215 b.